

“HAR KASBNING O‘Z O‘RNI BOR”

2-sinf 2-qismida “O‘qish savodxonligi” darsligida “Hunar zar, kasb gavhar” bo‘limidagi “Har kasbning o‘z o‘rni bor” mavzusini o‘tishda “Soha mutaxassislari nomini toping” deb nomlangan topshiriq berilsa, bu topshiriq orqali o‘quvchilar rasmlarga qarab soha nomlarini va ular nimalar bilan shug‘ullanishlarini aytishlari lozim bo‘ladi. Bu topshiriqni bajarishda ham o‘quvchilar bilan sohalar haqida suhbat, savol-javoblar tarqatmali materiallar asosida o‘tkalishi lozim. Soha egalari va ularning ish jarayonlari tasvirlangan videoroliklar namoyishi amalga oshiriladi.

Sinf o‘quvchilarini 6 guruhga bo‘lib, guruhlarga “Iqtisodchi”, “Matematik”, “Kimyogar”, “Me’mor”, “Biolog”, “Fizik” deb nom beriladi.

Iqtisodchi	
Qaysi sohalarda faoliyat olib boradi?	Matematik bilan bog‘liq tomonlari?
1. Barcha sohada iqtisodchi faoliyat olib boradi.	Iqtisodchi albatta matematika faning yaxshi o‘zlashtirishi kerak.
2. Uning vazifasi tashkilotning iqtisodiy sohasini nazorat qilish.	Matematika fani bilan doim bog‘liq. Raqamlar bilan ish olib boriladi.
3. Tashkilotdagi ishchi xodimlarning ish haqini ishlash va hokazo	

Kimyogar	
Qaysi sohalarda faoliyat olib boradi?	Biolog bilan bog‘liq tomonlari?
1.	
2.	

Me’mor	
Qaysi sohalarda faoliyat olib boradi?	Fizik bilan bog‘liq tomonlari?
1.	
2.	

O‘quvchilar ushbu ustunlarni davom ettirishga taklif qilinadi.

Ustunlar to‘ldirib yakunlanganidan keyin, har bir ustunda berilgan javoblar tahlil qilinadi. O‘quvchilarning fikri og‘zaki tarzda bayon ettiriladi. Bu jadvalli topshiriqni bir kun oldin o‘quvchilarga topshiriq qilib berishimiz ham mumkin.

Ular internetdan foydalanib, entsiklopediyalardan foydalanib, kitoblardan foydalanib jadvalni to'ldirib kelishlari ham mumkin. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarga telefondan va internetdan to'g'ri foydalanishni, kitob o'qishga qiziqishlarini orttirishga yo'naltirgan bo'ladi.